

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

ХОЖА АХРОР ВАЛИЙ ТАСАВВУФИЙ Г'ОЙАЛАРИ ВАТАН РАВНАҚИ ҲО'ЛИДА

Murodov Halim Salimovich Osiyo xalqaro universiteti "Tarix va filologiya"
kafedresi, PhD Telefon: +998906131416 murodovhalim645@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Xoja Ubaydullox Ahror Valiyning jamiyatda tarbiya va ma'naviyatning shakllanishida o'ziga xos o'rinlarining qanday muhimligi e'tirof etiladi. Bu maqola asosida, Xo'ja Ahror Valiyning ma'naviy merosi, uning jamiyat faoliyatidagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: darvish, Xo'ja Ahror Valiy, Navoiy, ma'naviy meros, Abulqosim Bobur, tariqat, tasavvuf.

MYSTICAL IDEAS OF KHOJA AKHRAR VALI ON THE PATH OF COUNTRY DEVELOPMENT

Muradov Halim Salimovich *Asian International University Department of
"History and Philology", Ph.D*

Phone: +998906131416 murodovhalim645@gmail.com

Abstract: The article recognizes the importance of Khoja Ubaidullah Akhror Vali in the formation of education and spirituality in society. Based on this article, the spiritual heritage of Khoja Akhror Vali, his place in society and its significance today are analyzed.

Key words: dervish, Khoja Akhror Vali, Navoi, spiritual heritage, Abul Kasim Babur, sect, Sufism.

МИСТИЧЕСКИЕ ИДЕИ ХОДЖИ АХРАРА ВАЛИ НА ПУТИ РАЗВИТИЯ СТРАНЫ

Аннотация: В статье признается значение Ходжи Убайдуллы Ахрора Вали в формировании образования и духовности в обществе. На основе данной статьи анализируется духовное наследие Ходжи Ахрора Вали, его место в обществе и его значение на сегодняшний день.

Ключевые слова: дервиш, Ходжа Ахрор Вали, Навои, духовное наследие, Абул Касим Бабур, секта, суфизм.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

Xoja Ahror tariximizning XV asrida Movarounnahr va Xurosonda Temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan davrda yashadi. Xoja Ahror Amir Temur umrining so'ngida dunyoga kelib, uning hayoti Movarounnahrda Xalil sulton, Mirzo Ulug'bek, Abdullatif, Mirzo Abdullo, Sulton Abu Sa'id, Sulton Ahmad, Xurosonda esa Shohrux, Abulqosim Bobur, Sulton Abu Sa'id va Husayn Boyqaro hukmronliklari davriga to'g'ri keladi. Bu davrda Samarqand markazligida Movarounnahrda ham, Hirot markazligidagi Xurosonda ham ma'lum vaqtda toju taxt uchun kurashlar davom etgan bo'lsada, ilm va madaniyatning, hunarmandchilik va tijoratning rivojlangan paytiga mos keladi. Xuddi shu davrda jahon ilmi va madaniyati xazinasiga katta hissa bo'lib qo'shilgan ilmiyadabiy obidalarni va me'moriy yodgorliklarni yaratishda Amir Temur va Mirzo Ulug'beklarning, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiylarning, Kamoliddin Behzod va Sulton Ali Mashhadiylarning, Mirxond va Xondamirlarning, Ali Qushchi va Qozizoda Rumiylarning xizmatlari alohida ahamiyat kasb etdi. Xuddi shu davrda Sharq falsafasidagi tasavvufning naqshbandiya tariqati bu o'lkalarda katta e'tibor qozondi va ijtimoiy guruhlarining barcha tabaqalari orasida keng yoyildi. Bu hodisaning sababini shu bilan izohlash lozimki, o'sha davrdagi zulm va adolatsizlikka nisbatan qarshi kurash Movarounnahr va Xurosonda naqshbandiya tariqatining yoyilishiga va uning mashhur namoyandalaridan Sa'diddin Qoshg'ariy, Xoja Ahrori Vali va Abdurahmon Jomiylarning yetishib chiqishlariga bois bo'ldi.

Barchaga ma'lum-u mashhur olim-u fozil, din va tariqat peshvosi, mutafakkir zot Xoja Ahror 1404-yilda hozirgi Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi Bog'iston qishlog'ida tavvalud topgan. Xoja Ahror taxalluslari bo'lib, asl ismlari Xoja Ubaydulloh ibn Xoja Mahmud ibn Xoja Shahobiddin Shoshiy bo'lgan. Otasi shayx Xoja Mahmud naqshbandiyaning xojagon sulukida bo'lgan, tijorat va ziroat ishlari bilan shug'ullangan. Shayx Xovandi Tohur ona tomondan uning bobosidir. Xoja Ahrorning bolalik va yoshlik davri Toshkentda o'tgan. Toshkent va Samarqand madrasalarida tahsil olgan. U tasavvuf ilmiga qiziqadi, shu maqsadda Hirotga borib Shayx Bahouddin Umar, Shayx Zayniddin Xavofiy kabi taniqli mutasavviflar suhbatida bo'ldi. Bahouddin Naqshbandniig shogirdi shayx Yoqub Charxiydan naqshbandiya tariqati asoslarini o'rgandi. U Yoqub Charxiydan irshod huquqini olib, murshidi komillik maqomiga yetgach, Toshkent, Turkiston atroflarida shuhrat topa boshlaydi. Naqshbandiya ta'limotining davomchisi sifatida ulamolar o'rtasida

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

katta obro‘ orttirdi va "valiy" ("avliyo") sifatida tanilib "Ahror" ("Hur", "Ozod") nomiga ega bo‘ldi.

Naqshbandiya tariqati piri komili, oshiq va orif zot — hazrati Xoja Ubaydullox Ahror: “Agar biz shayxlik da’vo qilsak edik, dunyoda boshqa shayxlarga murid qolmas edi. Lekin Alloh taolo menga boshqa vazifani yukladi, Mening zimmamga musulmonlarni zulmdan ozod qilish vazifasi yuklandi”, - deb lutf qilganlar. Bu e’tirof Hazratning Samarqanddagi maqbaralari lavhida yozib qo‘yilgan. Amir Alisher Navoiy Xoja Ubaydulloh Ahromi ta’riflab: Ular Toshkentda tug‘ilganlar. Og‘alari darvish, (ya’ni, ahli tariqat, ahli hol, g‘oya tashuvchi pok, ma’rifatli oshiq) kishi bo‘lganlar. Ona tarafidan esa u zot Toshkent viloyatida mutaayyin shayx bo‘lmish Shayxi Taxurga borib yetadilar. Va o‘zlarida bu tasavvuf ishining bahrasi bolalik chog‘laridan bor edi, — deydilar (“Nasoim ul-muurbbat”). Yana Alisher Navoiy “Hayrat-ul abror” dostonining “Uchinchi hayrati”da u zot haqlarida: Ulki bu ofoq ichida toq erur, Toq nekim, murshidi ofoq erur, — ya’ni, "U kishi dunyo ichida toqdir — yagonadir, toq nima bo‘libdi, u zot dunyoning murshidi — ma’naviy yo‘lboshchisidir", — deydilar. " Bu past dunyo u zotning dargohida tuproq supuruvchi, balki peshonasi bilan xoshok supuruvchidir" deb kamtar insonning ta’rifini keltirganlar.

Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy hazratlari hayotlari davomida insonlarni faqat go‘zal xulq atvor egasi bo‘lish orqali chin musulmon bo‘lishga chorlab, hurhikmat so‘zlarni bizgacha meros bo‘lib qolgan asarlarda ta’kidlab bayon etganlar. Jumladan:

“Zikr tesha yanglig‘dirkim, uning bilan xavotirning tikanlarini kungilning yo‘lidin chopib olurlar”.

“Ish uldirkim, zikrda istig‘roq bo‘lsin, shu holatdagi, unga na jannatning zavqi kirsin va na do‘zaxning xavfi. Uyqu va bedorlik, unga barobar bo‘lur. Bu buzrugvorlarning atroflarida yurmoq uchun shaytonga imkon bo‘lmas».

“Agar suhbatda sukut etmoq haq subhanaxudan ogoh bo‘lmoqning hifzi (himoyasi) uchun bo‘lsa va lagv aytilmasin degan mulohaza uchun bo‘lsa, u suhbat jannatdir. “Lo yasma’una fiyxa lagvan” (“Unda (jannatda) behuda, bema’ni so‘z eshitmaslar” (Naba’ surasi, 35-oyat) oyati karimasida ishorat ana shunday suhbatga taalluqlidir. Ko‘ngli mahbubi haqiqiyga giriftor bo‘lgan odamlarning ko‘ngillari hamma holda ul Hazrat (Alloh taolo) bilan mukolama va munojot (suzlashuv va iltijo) maqomida bo‘lur”.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

“Ibodot ul narsadan iboratdirki, amrlarga (shariat buyruqlariga) amal etib, navoxiydan (qaytarilgan narsalardan) ijtinob koʻrguzsalar (qaytsalar). Ubodat (bandalik) Haq subhanaxuning janobiga tavajjuh va iqbol koʻrguzmoqdan iboratdir”.

“Baʼzi kitoblarda ibodat va ubodat orasida shundoq farq etibdurlarkim, ibodat shariat mujibiga koʻra, bandalik vazifalarini ado qilmoqdir, ubodat esa koʻngilning taʼzim sifati bilan huzur va ogohlidir”.

“Shariat bor, tariqat bor, haqiqat bor. Shariat hukmlarni zohirga (tashqi feʼlga) joriy etmoq, tariqat botinning jamʼiyatida taammul va takalluf etmoq haqiqat shu jamʼiyatida (ichki olamda) rusuhdir (mahkam, mustahkam boʻlmoqdir)”.

Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy hazratlari oʻz zamonasining tinch totuv hamda xalqi farovon yashashi uchun ham koʻp mehnat qilgan, harakat qilgan diniy va siyosiy taʼsirga ega boʻlgan komil inson sifatida gavdalangan. Ul zot dil ahlining yoʻldoshi, maʼno ahlining sirdoshi, ixlos va muhabbat ahlining madadkori va maʼnaviy najotkori sifatida namoyon boʻlganlar. Sultonlar u zotning dargohiga bosh urganlar. U zotga yuzlanmagan hukmdor deyarli yoʻq edi. U zot sultonlarning shayxi, shayxlarning sultonidirlar. Hazratning siyosiy hayotdagi taʼsiri juda kuchli boʻlganligi koʻpgina oʻsha davr manbalari va zamondoshlari tomonidan zikr etilgani maʼlumdir.

Chunonchi, “Nasoim ul-muhabbat”da Navoiy aytadilar: Movarounnahr sultonlari oʻzlarini ularning muridzodalari va hukmining mahkumi tutar edilar. Yoʻk, faqat Movarounnahr sultonlari emas, balki Xuroson va Iroq va Ozarbayjon, hattoki, bir tomondan Rum va Misrgacha va bir tomondan Xitoy va Hindgacha — barcha mamlakatlar va sultonlar Oʻzlarini Xoja hukmining mahkumi va farmonining maʼmuri tutar edilar, — deydilar.

Yana “Hayrat ul-abror”da aytadilar:

Yuz kuyubon kullutra shoxlar,
Bazmida behud oʻlub ogohlar,
Xizmatida har kishi ogoh oʻlub,
Garchi gado, maʼni bila shoh oʻlub...

Yaʼni, "Shohlar u zotning qullugʻiga yuzlarini qoʻiib, yer ular, maʼrifat va maʼno bazmida esa ogohlar, hushyorlar bexud-behush boʻlurlar. Xizmatida har kishi ogoh - hushyor boʻlib, garchi oʻzi gado boʻlsa ham, maʼno olamida shoh boʻlur". Yana aytadilar: "U zot jahon mulki ekinzorining dehqoni, yoʻq balki jahon

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

mulkinging nigohboni, qo'rikchisidir. Yo'q butun mamlakatlarga nigohbondirlar, barcha sultonlar ustida sultondirlar".

Lutf-iltifot qilgan chog'larida faqat shohga emas, balki gadoga ham toj bag'ishlab, uni ma'naviy podshoh qilib yuboradilar:

Yana bir muhim xislatlari shuki, u zot xalqqa Haq so'zini aytganlarida oldilarida shohu gado barobar ekanligidir. Hazratning Movorounnahr va Xurosonning siyosiy hayotiga ta'siri qay darajada ekanligini quyidagi tarixiy voqea bilan ham anglash qiyin emas. Ma'lumki, Xuroson hokimi Sulton Abulqosim Bobur 1454 yilda Abu Sa'id mirzo hukmronlik qilayotgan Samarqandga yurish qildi. Shu voqea bilan bog'liq bo'lgan ayrim lavhalar Muhammad Qozi tomonidan Keltirilganki, ular bir tomondan, Xoja Ubaydullohning mavqeyini tushinishda, ikkinchi tomondan esa, Abulqosim Boburga tegishli ba'zi masalalarni oydinlashtirishda ko'maklashadi. Ulardan biri quyidagicha: Ayturlarkim, Abulqosim Bobur Mirzo Samarqandni qamal qilgan vaqtda Xoja Abu Nasr Porso hazratlari Balxda ekanlar. Bir kuni Balxda "Abulqosim Bobur Samarqandni egallabdi" degan gap tarqalibdi. Xoja Abdulmalik iztirob bilan Xoja Abu Nasr huzuriga kelib, "Mirzo Bobur Samarqandni olibdi" dedi. Xoja Abu Nasr bunga e'tibor bermabdi. Xoja Abdulmalik esa bu gapni bir necha marta takrorlabdi. Bu vaqtda Xoja Abu Nasr tahorat qilib, qo'llarini yuvayotgan ekanlar. Xoja Abdulmalik haddan tashqari mubolag'a qilavergach, Xoja Abu Nasr aytibdilarki, shunday ovoza qilibdilar, deb qo'llarini uzatib, mana, Bobur Samarqandni olar ekan?! Samarqandning egasi bor, uning ijozatisiz va roziligisiz hech kim Samarqandni ololmaydi. Xoja Abdulmalik «Samarqandning egasi kim» deb so'rabdi. Xoja Abu Nasr aytibdilar: Xoja Ubaydulloh hazratlari... Bir kecha fursat o'tgach, Boburning Samarqandni olgani haqidagi ovozaning yolg'onligi ma'lum bo'libdi.

Mana bu hikoya ham qiziq: Abdulqosim Bobur ikki yuz ming lashkar bilan Samarqandga yo'l olgach, bu xabarni eshitgan Sulton Abu Sa'id mirzo Xoja Ubaydulloh hazratlari huzuriga kelib, Men mirzo Boburga qarshi kurasha olish quvvatiga ega emasmen, nima qilmoq kerak, debdi. Xoja hazratlari unga tasalli beribdilar. Mirzo Bobur lashkarlari Amudaryodan o'tgach, Sulton Abu Sa'id mirzoning amirlari Turkistonga chekinib, u yerni mustahkamlash kerak, degan maslahatga kelibdilar va safar asboblarini tayyorlay boshlabdilar. Bundan voqif bo'lgan Xoja hazratlari darrov kelib, tuyalarga ortilgan yuklarni tushirishni aytib, mirzo Sulton Abu Sa'idga murojaat qilib, «qayerga bormoqchisiz? Hyech qayerga

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

borishning hojati yo'q, mushkul shu yerda oson bo'ladi. Men sizning himoyangizni o'z zimmamga olganman. Garchi ba'zi amirlaringiz Xoja hazratlari bizni o'linga boshlayapti, deb aytgan bo'lsalar-da, Siz bunga ishonmang» debdilar. Sulton Abu Sa'idning Xoja hazratlariga e'tiqodi kuchli bo'lganligi sababli hech kimning gapiga quloq solmadi va hech qayerga otlanmadi. Mirzo Boburning amirlari «Sulton bizga qarshi turishga dosh berolmay, Samarqandni bizga qoldirib ketadi» degan xayolda ekanlar. Ammo Sulton Abu Sa'id qal'ani mustahkamlab, urushga shaylanibdi. Mirzo Bobur Samarqand qal'asiga yaqinlashibdi. Uning ilg'ori Xalil hindu boshchiligida Namozgoh yaqinida shahardan chiqqan ozgina kishilar bilan urushibdi. Bu urushda Xalil hindu asir tushibdi. Mirzo Bobur Samarqandning qadimiy histori-qal'asi (hozirgi Afrosiyob)da o'rinishibdi. Uning askarlari oziq-ovqat izlab, atrofga borganlarida aholi ularni tutib, quloq va burunlarini kesadilar. Shunday qilib, mirzo Bobur askarlaridan ko'pi quloq va burunsiz bo'lib qoladi. Mirzo Bobur lashkarining ahvoli nihoyatda og'ir bo'libdi. Bu orada ularning otlari ham kasallikka uchrab o'libdi. O'liklarning hididan ham ahvol og'irlashibdi. Nihoyat mirzo Bobur Mavlono Muhammad Muammoiyni hazrati Xoja Ubaydulloh huzuriga yuborib, sulh tuzishni taklif qilibdi. Mavlono Muhammad Muammoiy Xoja Ubaydulloh bilan muloqot vaqtida qiziq gaplarni aytibdi: bizning mirzomiz (Bobur mirzo) olihimmat kishidir, qayerga borsa, uni olmay qo'ymaslar... Hazrati Xoja ayturdilarki, Men bu gapning javobida shunday dedim: agar mirzo Boburning bobosi Shohrux mirzoga nisbat bo'lgan hurmatim bo'lmaganda edi, chunki men mirzo Shohrux vaqtida Hirotda bo'lganimda ko'pgina farog'atlar ko'rgan edim, masala boshqacharoq hal bo'lishi mumkin edi. Xulosa, sulh tuzishga rozi bo'libdilar. Ushbu tarixiy voqea sabog'i shundaki Xo'ja Ahror Vali hazratlari o'z xulqi, buyuk tariqatning davomchisi hamda diniy siyosiy ta'sirga ega alloma sifatida Vatanimizning XV asrdagi tarqqiyotida ham tariqat vakili, ham diplomat sifatida o'ziga xos muhim o'rin tutganligini ko'rsatadi. Xulosa o'rnida Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy naqshbandiya tariqatining eng buyuk murshidlaridan biri sifatida asosiy xizmati naqshbandiya silsilasining islom olamidagi eng ulug' silsilalardan biriga aylanishidagi xizmatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirzo Kenjabek. Dunyoning murshidi. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. "Fan" nashriyoti. 2004.6-12 betlar.
2. Valixo'jayev B., Xoja Ahror tarixi, T., 1994;31-32 betlar.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

3. Мурадов, Х. (2023). ОБЗОР ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/8). <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N05>
4. Murodov Halim Salimovich. (2023). BUXORO TURIZMI VA MILLIY HUNARMANDCHILIK. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 2(12), 93–96. Retrieved from <https://jets.innovascience.uz/index.php/jets/article/view/149>
5. Salimovich , M. H. . (2024). The Role of the Cultural Sector in the Development of Bukhara Tourism. Miasto Przyszłości, 45, 729–735. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2725>
6. Salimovich, M. H., & Nasriyevna, B. F. (2024). VIZA–TURIZM SIYOSATI UCHUN KENG QULAYLIK OMILI. SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI, 2(3), 589-597.
7. Halim, M. (2024). MUSTAQILLIK ARAFASIDA O ‘ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLANISHI VA MUAMMOLARI. XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI, 1(1), 19-23.